

65
XXI

Xayitov Sh.N. Alimova Sh.A.

**BYUDJET
TASHKILOTLARIDA
BUXGALTERIYA HISOBI**

Toshkent – 2021

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA
INSTITUTI

HAYITOV SHERBEK NAJMOVICH
ALIMOVA SHAMSIYA ABIDOVNA

**BYUDJET
TASHKILOTLARIDA
BUXGALTERIYA HISOBI**

Texnikumlardagi o'rta maxsus professional ta'lif darajasidagi
5.32.06.01-buxgalteriya hisobi va audit mutaxassisligi bo'yicha
ta'lif oluvchilarga mo'ljallangan.

"TURON NASHRIYOT"
Toshkent – 2021

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi [Matn] : o'quv qo'llanma / Sh.N. Xayitov, Sh.A. Alimova. -Toshkent: "Turon Nashriyot", 2021.- 104 b.

Taqrizchilar: BDU "Serviz sohasi iqtisodiyoti" kafedrasи

Buxoro MTI «Menejment» kafedrasи

Bu o'quv qo'llanmada byudjet korxonalar buxgalteriya hisobini yuritish, ko'rsatkichlar bilan chuqur tanishtirish; byudjet buxgalteriyasining muhim tamoyillari va qo'llaydigan usullaridan bo'lg'usi ish joylarida foydalanish; buxgalteriya turlarini va jarayonlarni o'rganishda qo'llash; korxonalar faoliyatidagi jarayonlarni axborot manbalaridan foydalanib to'g'ri tushunishiga; moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan korxonalarning foydalanganlik darajasiga baho bera olishligiga; mahsulotlar sotishdan, asosiy va umumxo'jalik faoliyatida ko'rilgan moliyaviy natijalarni aniqlay bilishga; byudjet korxonalarining samaradorligi yaxshilash va h.k. Shuning uchun ham aynan shu masalalar keng yoritilgan.

O'quv qo'llanma 5.32.06.01-buxgalteriya hisobi va audit mutaxassisligi bo'yicha ta'lif yo'naliшlarining mukammal bilim olishlari, har tomonlama yetarli bilim va ko'nikmalar egallashi uchun mo'ljallangan.

ISBN – 978-9943-7612-0-9

BUXORO MUHANDISLIK-
TEKNOLOGIYA INSTITUTI

A R M

REESTR N 1001

87360

© "Turon nashriyot", 2021

MUNDARIJA

Kirish.....	5
1-Mavzu: Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish. ularda hisob siyosatining xususiyatlari	8
2-Mavzu: Byudjet tashkilotlarida smeta xarajatlari. G'azna ijrosi sharoitida byudjetdan moliyalashtirish, byudjet xarajatlari kassa ijrosi hisobi	15
Mustaqil ta'lif topshiriqlari.....	25
3-Mavzu: Byudjet tashkilotlarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalari hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi	27
4-Mavzu: Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar hisobi	35
5-Mavzu: Byudjet tashkilotlarida tovar moddiy zaxiralar hisobi	42
6-Mavzu: Moliyaviy aktivlar hisobi	48
7-Mavzu: Byudjet tashkilotlarida turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashuvlar hisobi	55
8-Mavzu: Byudjet tashkilotlarida mehnat va unga tenglashtirilgan to'lovlar hisobi	61
9-Mavzu: Byudjet mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar hisobi	69
10-Mavzu: To'lovlarни maxsus turlariga doir hisoblashuvlar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar hisobi	72
11-Mavzu: Ta'lif muassasalarida o'qitishning to'lov kontrakt mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar hisobi	76

12-Mavzu. Shaxsiy hisob varaqlarni sub'schyotlarga biriktirish.....	83
Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi fanidan masalalar to'plami.....	90
13-Mavzu: Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, uning nazariy-uslubiy asoslari.....	90
Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati	100

Hammamizni turbiyalagan, voyaga yetkazgan – shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergen ham – shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navhatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak – odamlarimiz bilan. Kim bilan hamaslahat ish tutishimiz kerak – avvalo, xalqimiz bilan.

SHUNDA XALQIMIZ BIZDAN ROZI BO'LADI.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Miromonovich Mirziyoyev*

Kirish

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini rivojlantirish, buxgalteriya hisob sohasida islohotlar jarayonining avj olishi shu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan olim ya muta xassislar zimmasiga juda katta ma'suliyat yuklaydi. Bugungi kunda g'azna ijrosida mablag'larni maqsadli ishlatalish, byudjet tashkilotlarida hisobkitob muomalalarini shakllantirish hamda hisob siyosatining tizimli ma'lumotlarini umumlashtirishni tashkil qilish, xalqaro andazalar darajasida milliy andozalar talablarining ijrosini ta'minlashni taqozo etadi. Byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobida hisob siyosatini takomillashtirishning zaruriyati shundan iboratki, bu jarayonlarning pirovard natijasida byudjet tashkilotlari doimiy sur'atda ishlab, rivoj topadi hamda byudjet tashkilotlari manfatlari darajasini oshiradi. Zero, iqtisodiyotni tubdan modernizatsiya qilish, mulkchilikning xilma-xil shakllarida bozor mexanizmlarini qo'llashni biladigan, mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy negizi bo'lgan malakali innovatsion texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirgan, buxgalteriya sohasida bilim-ko'nikmalari yuksak bo'lgan yosh kadrlar tayyorlashda mazkur darslik birlamchi hisoblanadi.

Mamlakatimizda byudjet mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanshni yo'lga qo'yish maqsadida g'aznachilik

tizimining joriy qilinishi obyektiv zarurat bo'lib, mazkur tizim bugungi kunda o'zining samarasini amalda ko'rsatib kelmoqda. Bu albatta davlat tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy yo'nalishlardan biridir. Malakali professor-o'qituvchilar ham bu yo'nalishda munosib hissa qo'shishlari lozim.

Bu borada yuksak vazifalarni bajarish, xususan, davlat byudjetining asosiy qismini tashkil etuvchi byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning o'ziga xos qirralari, vazifalari va mazmuni, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish hisobi, smeta xarajatlarini tuzilishi va uning bajarilishi hisobining xususiyatlari, pul mablag'lari, asosiy vositalar va moddiy zaxiralalar hisobi, mehnat sarfi, mehnatga haq to'lash hisobi, ijtimoiy sug'urta muassasalariga ajratmalar hisobi va ular bo'yicha hisoblashishlar, turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashishlar, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi, mol-mulk va moliyaviy majburiyatlarini inventarlash va ularning natijalarini hisobga olish, hisobvaraqlarga yillik xulosalar va ularning yopilishi, byudjet tashkilotlarining buxgalteriya hisobotlari va shu kabilar hisobchilar hamda mutaxassislar zimmasiga kiradi.

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini o'rganish iqtisodiy nazariya, buxgalteriya hisobi nazariyasi, tannarx kalkulatsiyasi, iqtisodiy tahlil, audit, mikroiqtisodiyot, statistika, marketing va menejment asoslari soliq tizimi, pul muomalasi va kredit, tadbirkorlik va biznes asoslari sanlarini o'zlashtirishdan boshlanadi.

«Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi» darsligini o'qish orqali o'quvchilar byudjet tashkilotlarining buxgalteriya hisobi to'g'risida berilgan tushuntirishlar bo'yicha ko'proq mustaqil ravishda amaliy mashg'ulotlar bilan taqqoslagan holda o'rgansa, ularning bilim va ko'nikmalari kundan-kunga ortishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ushbu darslikni o'rganishda zamонавиу axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (multimediali kompyuter majmuasi, proyektor, kodoskop)lardan, yangi pedagogik texnologiyalar, ya'ni aqliy hujum, kichik guruhlarga bo'linib

ishlash, keys-stadi, breyn-ring ish o'yinlari, bahs-munozara, zanjir, shajara daraxti va boshqalar, shuningdek «UzAsbo hisobi» va «Buxgalteriya elektron madad» buxgalteriya dasturlaridan foydalanib, o'rganilsa, foydadan xoli bo'lmaydi.

1-Mayzu: . Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, ularda hisob siyosatining xususiyatlari

Vizual materiallar

1-ilova

Byudjet tashkiloti – zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun davlat byudjetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkilotidir.

2-ilova

Byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobi – bu tashkilotga ajratilgan davlat byudjeti mablag'lari va nobyudjet mablag'lari ijrosining buxgalteriya hisobidir. Byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobida tashkilot ixtiyoridagi mablag'lar, xo'jalik jarayonlari va ularning ta'siri ostidagi tashkilot mablag'larining hajmi, tuzilishi, joylanish va tayinlanishidagi sodir bo'ladigan o'zgarishlar aks ettililadi hamda tashkilotning xarajatlar smetasi ijrosi natijalari aniqlanadi.

3-ilova

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining maqsadi bo'lib, foydalanuvchilarni to'la, aniq va o'z yaqtida moliyaviy va boshqa buxgalteriya ma'lumotlari bilan ta'minlash hisoblanadi.

4-ilova

Byudjet tashkiloti – bu budjet mablag'lari hisobidan moliyalanib, yuqori davlat hokimiyatlari tomonidan tusdiqlangan smeta asosida faoliyat olib boradigan yuridik maqomga ega davlat tashkilotidir. Muzkur tashkilotlar davlat tomonidan ishlab chiqarilgan reja va topshiriqlarni o'z vakolati doirasida hal etadi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritadigan tashkilotlar bYudjetdan moliyalashtirilishiga qarab, bYudjet tashkiloti yoki nobYudjet tashkilotlariga bo'linadi.

Byudjet tashkilotlari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa vazirliklar hamda ularning quyi bo'g'lnlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari hamda ularning quyi boshqarmalari;
- Davlat nazorat organlari (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi,
- Davlat Soliq qo'mitasi, Milliy xavsizlik xizmati, prokuratura, sud va h.k.);
- Davlat mullk qo'mitasi;
- Ta'lim sohalari (Institutlar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari va h.k.);
- Sog'liqni saqlash sohalari (tibbiyot muassasalari, sanatoriylar, poliklinikalar, qishloq tez tibbiy yordam muassasalari va h.k.);
- Ma'daniy-marifiy muassasalar.

Nobyudjet (byudjetdan moliyalashtirilmaydigan) tashkillari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

Fond shaklidagi tashkilotlar;

Ekosan xalqaro jamg'armasi;

Qizil Yarim Oy jamiyat;

– O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi va boshqa uyushmalari;

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (ma'suliyati cheklangan jamiyatlar, xususiy korxonalar, yukka tartibdagi tsdbirkorlar, kompaniya, konsemlar va qo'shma korxonalar);

Banklar va shu kabilar;

– Budgetdan moliyalashtirilmaydigan barcha tashkilotlar.

Testlar:

1. Buxgalteriya hisobi usullari.

A) Hujjatlashtirish va inventarizatsiya ikkiyoqlama yozuv balans va hisobot.

V) Baholash va kal'kulyatsiya, hujjatlashtirish va inventarizatsiya, schyotlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv, balans va hisobot.

S) Baholash va kal'kulyatsiya, schyotlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv.

D) Shaxmat yozuvi, kuzatuv, balans va hisobot.

2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan va nechta moddadan iborat?

A) 1996-yil 29-avgust' 24 ta modadan iborat;

V) 2001-yil 10-yanvar' 17 ta modadan iborat;

S) 1993-yil 18-noyabr' 28 ta modadan iborat;

D) 1996-yil 30-avgust' 24 ta modadan iborat.

3. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunga muvofiq boshlang'ich hisob hujjatlarining majburiy rekvizitlari nimalardan iborat?

A) hujjat raqamlari, sanasi, imzosi, mazmuni.

V) korxona nomi, hujjat nomi va raqami, sana va joy, mazmuni miqdori va ma'sul shaxs imzosi.

S) korxona nomi, hujjat nomi va raqami, sana va joy va ma'sul shaxs imzosi.

D) korxona nomi, hujjat nomi va raqami, sana va joy, mazmuni miqdori va ma'sul shaxs va korxona rahbari imzosi.

4. Ikkiyoqlama yozuv shartlari.

A) bir schyot debeti va ikkinchi schyot kreditiga bir xil summa

V) bir xo'jalik jarayoni summasi bir vaqtida bir xil summada bir schyot debeti, bir schyot kreditida aks ettiriladi

S) bir schyot debet bulib, ikkinchi schyot kreditlanadi.

D) bir summa bir schyot debetiga, ikkinchi schyot kreditida aks ettiriladi.

5. Byudjet tashkilotining hisob siyosati bu ...

A) Byudjet tashkilotida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha oylik ishlarning ichki tartibi.

V) Byudjet tashkilotida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha choraklik ishlarning ichki tartibi.

S) Byudjet tashkilotida smeta va uning ijrosi hisobini yuritish bo'yicha yillik ishlarning ichki tartibi.

D) To'g'ri javob yo'q.

6. Ma'blag' bilan ta'minlash kassa va amaldağı xarajallarni limitlar doirasida bo'lishini nazorat qilish va hisobga olish uchun qaysi daftar yuritiladi?

A) 294-shakldagi.

V) Kassa daftari.

S) 296-shakldagi.

D) 279-shakldagi.

7. Byudjet tashkiloti deganda nimani tushunasiz?

A) Bu zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirish uchun davlat byudjetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti.

V) Bu zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq davlat mulkchiligidagi asoslangan davlat tashkiloti.

S) Bu zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirish uchun davlat byudjetidan mablag' oladigan va mulkchilikni turli shaklidagi korxonalarini o'ziga biriktirgan davlat tashkiloti.

D) To'g'ri javob yo'q.

8. Byudjet tashkilotlarida "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunga muvofiq buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni kim amalga oshiradi?

- A) Tashkilot rahbari.
- V) Bosh hisobchisi.
- S) Yuqori tashkilot rahbari.
- D) O'zR Moliya vazirligi.

9. Balansdan tashqari schyotlar nima maqsadda qo'llaniladi.

- A) Tashkilotning mol-mulklarini alohida aks ettirish uchun.
- V) Muassasaga tegishli bo'limgan vaqtinchalik mablag'larni aks ettirish uchun.
- S) Tashkilotning vaqtinchalik balansidan chiqarilgan mulklar va boshqa qiymatliklar uchun.
- D) To'g'ri javob yo'q.

10. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining maqsadi
5-v

- A) Byudjet ijrosi bo'yicha foydalanuvchilarga aniq, to'liq va ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat;
- V) Byudjet tashkiloti moliyaviy faoliyati bo'yicha foydalanuvchilarga aniq, to'liq va ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat;
- S) Byudjet ijrosi bo'yicha faqat ichki foydalanuvchilarga aniq, to'liq va ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat;
- D) Byudjet ijrosi bo'yicha faqat tashqi foydalanuvchilarga aniq, to'liq va ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat.

1-ilova

Ishlarni baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Har bir talaba ko'rsatkich va mezonlar bo'yicha bal yig'adi.

0,1 balidan testning to'g'ri javobi uchun (maksimal 3 ball)

Guruh	1-topshiriq	2-topshiriq	Javobni lo'ndaligi (0,5)	Umumiy ball (2,6)

	Javobning to'g'riliği (0,4)	Asoslanga rılıgi (0,4)	Ko'rgaz malilik (sxema) (0,8)	Asoslan ganlik (0,5)		
1						
2						
3						

2-ilova

Guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar

1-guruh

1-topshiriq. Ushbu fikr to'g'ri yoki noto'g'rilibini aniqlang (javobni asoslang).

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi xo'jalik sub'ektlari buxgalteriya hisobidan farq qiladi.

2-topshiriq. Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping.

Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smeta asosida amalga oshiriladi.

2-guruh

1-topshiriq. Ushbu fikr to'g'ri yoki noto'g'rilibini aniqlang (javobni asoslang).

Byudjet tashkilotlarida xarajatlar bank orqali moliyalashtiriladi.

2-topshiriq. Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping.

Byudjet tashkilotlarida xarajatlar nechta guruhga ajratiladi va nima sababdan?

3-guruh

1-topshiriq. Ushbu fikr to'g'ri yoki noto'g'rilibini aniqlang (javobni asoslang).

Byudjetdan tashqari boshqa maxsus mablag'lardan foydalanish uchun smeta tuzish shart emas.

2-topshiriq. Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping.

Byudjet tashkilotlarida smeta xarajatlari uchun mablag' qaysi organ nazorati ostida amalaga oshiriladi?

Mustaqil ta'lif topshiriqlari.

1. Davlat byudjeti g'azna ijrosi sharoitida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya; hisobini tashkil qilish maqsadi, axamiyati, vazifalari;

2. Byudjet tashkilotlari buxgalteriya buxgalteriya balansini tuzilishi;

3. Byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan buxgalteriya hujjatlari va hisob registrlari bo'yicha me'yoriy hujjatlar asosida mustaqil o'rghanish va konspekt qilish.

2-Mavzu: . Byudjet tashkilotlarida smeta xarajatlari. G'azna ijrosi sharoitida byudjetdan moliyalashtirish, byudjet xarajatlari kassa ijrosi hisobi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA QURAQALPOGVOSTON RESPUBLIKASI VAZIRIKLARI DORALARI, TIGISHLARI HOKIMIYATLARNING BOSHQARMALARI, BO'LIBMLARI VA XARAJATLAR SMTALARINI TASDIQLASH HUQUQIGA EGA BO'LGAN BOSHQOVA TASHKILTLAR, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET TIZIMI TO'G'RISSIDA GI QONUNIGA MUVOFIQ ULARGA YTKAZILGAN AJRATILGAN NABLASHLAR HAJMLARI, BILGLANGAN TARTIBDA RUALASHTIRILGAN YIL UCHUN TASDIQLANGAN DAVLAT BUDJETI PARAMETRLARI DORASIDA O'Z QARAMOG'DAGI TASHKILTLARNING KILIB TUSINGAN XARAJATLAR SMTALARINI SINCHEKLAB KORIBCHIRISINI TADMILAYDILAR.

Test:

1. Byudjet mablag'lari oluvchilarining derozit hisobvaraqlariga mablag' o'tkazib berildi.

- A) Dt 020 Kt 011
- B) Dt 011 Kt 020
- C) Dt 041 Kt 050
- D) Dt 090 Kt 041

2.Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilot Toshkent shahar Moliya boshqarmasiga o'tkazilishi natijasida Respublika byudjetidan olinishi kerak bo'lgan mablag'lar o'zaro hisob-kitoblarga o'tkazildi.

- A) Dt 052 Kt 061
- V) Dt 041 Kt 040
- S) Dt 061 Kt 050
- D) Dt 061 Kt 071

3. Joriy hisobning hisobvaraqlar rejasida "Xarajatlar" nomli hisobvaraqlar nechinchi sonli hisobvaraqdagi yuritiladi?

- A) 09-tonli hisobvaraq.
- B) 06-tonli hisobvaraq.
- C) 04-tonli hisobvaraq.
- D) 02-tonli hisobvaraq.

4. Hududiy g'aznachilik bo'limlarida mahaliy byudjet mablag'lari bo'yicha ortiqcha tushgan mablag'lar jismoniy yoki yuridik shaxslarga qanday hujjatga asosan qaytariladi?

- A) Tayinlash sertifikati (5 shakl)
- B) Tayinlash sertifikati (12 shakl)
- C) Xulosa
- D) Tayinlash sertifikati (5 shakl)

5. Maxalliy moliya tashkilotlari buxgalteriyasida byudjet mablag'larini bosh boshqaruvchilarni hisobotlariga asosan ular tomonidan amalga oshirilgan kassa xarajatlari summasiga qanday buxgalteriya yozuvlari beriladi?

- A) Dt 020 Kt 011
- B) Dt 020 Kt 014
- C) Dt 011 Kt 020
- D) Dt 014 Kt 020

6. Quyida xarajatlar tasnifi turlarining to'g'ri keltirilgan qatorini belgilang

- A) Funksional (vazifasiga ko'ra) tasnif, Tashkiliy tasnif, Iqtisodiy tasnif,
- B) Ijtimoiy tasnif, Rrорorsional (vazifasiga ko'ra) tasnif, Funksional (vazifasiga ko'ra) tasnif.
- C) Iqtisodiy tasnif, Funksional (vazifasiga ko'ra) tasnif, Tashkiliy tasnif.
- D) Funksional (vazifasiga ko'ra), Iqtisodiy tasnif.

7. Respublika byudjeti bo'yicha byudjet mablag'larini boshqaruvchilar javobgarligi va ma'sulligi bo'yicha qanday darajalarga bo'linadi?

- A) Bosh boshqaruvchilar va uchinchi darajali boshqaruvchilar.

- B) Ikkinchisi va uchinchi darajali boshqaruvchilar.
- C) Bosh boshqaruvchilar.

- D) Ikkinchisi darajali boshqaruvchilar, uchinchi darajali boshqaruvchilar.

8. Respublika byudjetidan byudjet tashkilotlarini moliyalash qanday usulda amalga oshiriladi?

- A) To'lov topshirig'i usulida.
- B) Kredit ochish usulida.
- C) Inkassa usulida.
- D) Hisoblashuvlar usullarini qo'llagan holda.

9. Kapital qo'yilmalar va boshqa tadbirlami moliyalashtirish uchun mablag' ajratildi

- A) Dt 020 Kt 090
- B) Dt 011 Kt 020
- C) Dt 020 Kt 011
- D) Dt 051 Kt 090

10. Moliya yili oxirida byudjet ijrosi natijalari aniqlanayotgan vaqtda mahalliy byudjet hisobidan amalga oshirilgan kassa byudjet xarajatlari umumiyligi summasi hisobdan chiqarilayotganda qanday buxgalteriya yozuvni rasmiylashtiriladi?

- A) Dt 020 Kt 090
- B) Dt 090 Kt 020
- C) Dt 020 Kt 040
- D) Dt 040 Kt 020



B./ B. /B texnikasini qo'llash qoidalari

Nº	Mavzu: savoli 2	Bilaman 3	Bilishni xohlayman 4	Bildim 5
1.	Byudjetdan moliyalashtirish			
2.	Byudjet xarajatlari			
3.	Kassa ijrosi			
4.	Moliyalashtirish tartibi			
5.	Buxgalteriya yozuvi			
6.	Hujjatlashtirish			
7.	G'azna ijrosi			
8.	Moliyalashtirish hisobi			
9.	Moliyalashtirish ketma-ketligi			
10.	G'azna ijrosi sharoiti			
11.	Byudjet ijrosi			

ESSE

Esse – taklif etilgan Mavzu: ga 1000 dan 5000 gacha so‘z hajmidagi insho.

Esse – bu muallifning shaxsiy nuqtai nazarini yozma ravishda erkin ifoda etish shakli; qandaydir predmet bo‘yicha umumiyligi yoki dastlabki dunyoqarashni o‘z ichiga oladi.

Besh daqiqalik esse

Besh daqiqali esse – o‘rganilayotgan Mavzu: bo‘yicha olingan bilimlarni umumlashtirish,

mushohada qilish maqsadida o‘quv mashg‘ulotida oxirida 5 daqiqa oralig‘ida olib boriladi.


Byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobida analitik va sintetik hisobvaraqlar

Byudjet tashkilotlarining hisobvaraqlar rejasiga ikki guruhgaga bo‘linadi:

1) ON – birinchi tartibli hisobvaraqlar buxgalteriya hisobida. Bu sintetik hisobvaraqlar ham deb ishlataladi (masalan, 01-sonli, 02-sonli hisobvaraqlar va boshqalar);

2) ONN – ikkinchi tartibli hisobvaraqlar. Bu analitik hisobvaraqlar atamasida ishlataladi (masalan, 010-sonli, 011-sonli, 020-sonli, 021-sonli hisobvaraqlar va boshqalar).

Byudjetlar ijrosi bo‘yicha muomalalar hisobini yuritishda va memorial ordclarni rasmiylashtirishda birinchi va analitik tartibli hisobvaraqlar shifrlariga, shuningdek, ularning ikkiyoqlama yozuv usuliga amal qilinishi lozim (1-chizma).



1-chizma. Bitta hisobvaraqlarning sintetik va analitik hisob holati va farqlari.

Byudjet tashkilotlarda bajarilgan ishlar o'z vaqtida tegishli hisob-varaqlarda qayd etilib, hisobot davri bo'yicha balans va boshqa hiso-botlarda umumlashtiriladi.

Kunlik sodir etilgan hisob ishlari hisobvaraqlarda alohida-alohida qayd etib boriladi. Biz buxgalterlar mazkur hisobga olinishlarni analitik hisobvaraqdha hisobga olinish deb baholashimiz yoki tushunmog'imiz kerak. Hisobot davriga kelib hisobvaraqlar albatta umumlastiriladi. Mazkur umumlashtirilish natijalari moliyaviy hujjat (balans)da aks ettirildi va u sintetik hisobvaraqdha aks ettirilish deb tushuniladi.

Analitik hisobvaraqlarda qoldiqni aniqlash tartibi 2-, 3-chizmalarda o'z aksini topgan. Mazkur hisob-kitoblarni kunlik bajarilayotgan ishlar hajmining hisobot davriga kelib, natijaviy hisobvaraqlar qiymatliklari to'g'risidagi axborot olish uchun o'zlashtirish shart. Bu hisoblashishlarni byudjet tashkilotlari buxgalterlari va byudjet tashkiloti bo'lмаган nobyudjet tashkiloti buxgalterlari ham bilishlari lozim.

Hisobvaraq nomi		
Debet		Kredit
oy boshiga	Q	-
+		
Qiymatliklar kirimi (Bir nechta bo'lishi mumkin)		Qiymatliklar chiqimi (Bir nechta bo'lishi mumkin)
Debet aylanish jami		Kredit aylanish jami
oy oxiriga	Q	

2-chizma. Analitik aktiv hisobvaraqlardagi hisob-kitoblar.

Byudjet tashkilotida mavjud aktiv hisobvaraqlar oy oxiri yoki hisobot davriga kelib sarhisob qilinadi. Aktiv hisobvaraqlarning oy (hisobot) oxiriga qoldiq qiymatini quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_{oy\ oxiriga} = (Q_{oy\ boshiga} + Debet\ aylanish\ jami) - Kredit\ aylanish\ jami.$$

Byudjet tashkilotida mavjud passiv hisobvaraqlar oy oxiri yoki hisobot davriga kelib sarhisob qilinadi. Passiv hisobvaraqlarning oy (hisobot) oxiriga qoldiq qiymatini quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$Q_{oy\ oxiriga} = (Q_{oy\ boshiga} + Kredit\ aylanish\ jami) - Debet\ aylanish\ jami.$$

Debet aylanish jami = Qiymatliklar kirimi (Bir nechta bo'lishi mumkin).

Kredit aylanish jami = Qiymatliklar chiqimi (Bir nechta bo'lishi mumkin).

Formulalardagi Q – qoldiq, Debet – kirim, Kredit – chiqim, Plyus – mablag'larni ko'payish, Minus – mablag'larni kamayish ma'nolarida ishlatalmoqda.

Byudjet tashkiloti bosh hisobehisining javobgarligi

Byudjet tashkiloti bosh hisobehisining javobgarligi quyidagilarda gavdalananadi:

1. Bosh hisobchi o'z faoliyatida Vazirlar Mahkamasining qarorlari, nizomlari, korxona nizomi, Bosh hisobchilar haqidagi yo'riqnomalar, hay'at qarorlari, byudjet tashkiloti direktorining barcha buyruqlariga qonun doirasida rioya qiladi.

2. Buxgalterlik hisobotlarini o'z vaqtida va aniq tuzib, manzillarga jo'natishni nazorat qiladi.

3. Xarajat uchun olingan mablag'larning to'g'ri va o'z vaqtida hisobga olinishini nazorat qiladi.

4. Lavozim bo'yicha uning zimmasiga yuklangan vazifalarni o'z vaqtida va sisatlari bajarilishiga ma'suldir.

5. Mehnat va moliyaviy intizomning korxona ichki tartib-qoidalaringin bajarilishiga ma'suldir.

6. Mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalari, ishlab chiqarish sanitariyasi talablarning benuqson bajarilishiga ma'suldir. Shuningdek, berilgan yoki jo'natilgan hujjatlar belgilangan ijro intizomi talablari doirasida bajarilishining nazorat (monitoring)ini olib boradi.


Byudjet tashkilotda topshiriqlarning berilishi hamda ularning ijrosi yuzasidan hisobotlarni talab qilishda buxgalteriya bo'limining rolini (4-chizma) ko'rib o'tamiz.

Quyidagi strukturaviy tuzilishdan, bosh hisobchini to'g'ridan to'g'ri rahbardan topshiriqlar olib, u bo'yicha hujjatlar ijrosini ta'minlashini ko'rishimiz mumkin.

Rahbarning barcha muovinlari bosh hisobchi ustidan buyruq berishlari yoki g'azna ishlarini nazorat qilishlari mumkin emas.

Agar tashkilot rahbari buyruq chiqarish orqali rasmiy ko'rinish kiritadigan bo'lsa, shunda ham nazorat organlari mutaxassislari jalb qilinsagina (a'zo sifatida tekshirish komissiyasida qatnashishi) kuzatuvchi sifatida taalluqli masalalarda ishtirok etishi mantiqqa to'g'ri keladi.

Bosh hisobchi moliyaviy ishlar (G'azna ijrosi) yuzasidan rahbarning barcha muovinlari, boshqarma (bo'lim)lardan davriy hisobotlarni talab qilishga, tasdiqlangan smeta xarajatlarini g'azna talablari doirasida nazoratga ma'sul hisoblanadi.



Bu yerda:

→ Topshiriq olish →

Hisobot talab qilish.

4-chizma. Byudjet tashkiloti rahbarining topshiriq berishi va bosh hisobchini g'azna ijrosi yuzasidan davriy hisobotlarni qabul qilish.

Buxgalteriya hisobi registrlarining mazmuni bilan tanishishga byudjet tashkiloti direktori ruxsati bilan yoki qonun hujjalarda nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi. Buxgalteriya hisobi registrlari bilan tanishishga ruxsat etilgan shaxslar ularning maxfiyligini saqlashlari shart. Maxfiylikni buzganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

Shuningdek, buxgalteriya hujjalarni saqlash va registrlar, mikrofilmlar yoki kompyuter hisobi moliyaviy ma'lumotlari kamida uch yil, moliyaviy hisobot esa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan muddat mobaynida saqlanadi. Undan tashqari, buxgalteriya hujjalarni olib qo'yish yuqori vakolatli davlat nazorat organlari tomonidan chiqarilgan hujjalarga muvosiq amalga oshiriladi.

Pul, tovar-moddiy va boshqa boyliklarni qabul qilish va berish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hujjalar, korxona, muassasa va tashkilotning kredit va hisob-kitob majburiyatları, shuningdek buxgalteriya hisobotlari va balanslari rahbar tomonidan yoki u belgilaydigan shaxslar tomonidan imzolanadi.

Rahbar imzolash huquqiga ega bo'lgan shaxslarining ikkita ro'yxatini tasdiqlaydi. Birinchi ro'yxatga – rahbarlik vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslar (rahbar, birinchi o'rinnbosari), ikkinchisiga – buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslar kiradi.

Byudjet tashkiloti rahbari va bosh hisobchisining imzosi bo'lmagan hujjalarni haqiqiy hisoblanmaydi.

1-ilova

Blits so'rov savollari

Byudjetdan moliyalashtirish

Byudjet xarajatlari kassa ijrosi

G'aznachilik va uning hududiy bo'limlari orqali moliyalashtirish tartibi

G'aznachilik bo'limlarida moliyalashtirishni hujjalashtirish

Buxgalteriya yozuvlarida aks ettirish tartibi

Byudjet tashkilotlarning xarajatlar smetasiga va shtatlar jadvalini ishlab chiqilgandan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy moliya organlarida ro'yxatdan o'tkaziladi.

2-ilova

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (ball)

Guruh	Jadvalni to'g'ri tuzilganligi	Javobni tushunarligi va aniqligi	Xulosalarni shakllantirish	Ballar yig'indisi
	(0,8)	(0,6)	(0,6)	(2,0)
1				
2				
3				
4				
5				
6				

3-ilova

Mavzu: bo'yicha nazorat savollari

Savollar	Javoblar
1. Byudjetdan moliyalashtirish tartibi.	
2. Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar hisobidan amalaga oshiriladigan xarajatlarning o'ziga xos xususiyatlari.	
3. Byudjet tashkilotlarini byudjetdan moliyalashtirishda xarajatlarning guruhlarga ajratilishi.	
2. G'aznachilik va uning hududiy bo'limlari orqali moliyalashtirish tartibini uslubiy asoslari.	
3. Byudjetdan moliyalashtirishni hujjalashtirish ketma-ketligi va hisobotlarda aks ettirish.	
4. Byudjetdan moliyalashtirishni buxgalteriya yozuvlarida aks ettirish uslubiyoti.	

Mustaqil ta'lim topshiriqlari.

1. Byudjetdan moliyalashtirish va byudjet xarajatlari kassa ijrosi.

2. O'zbekiston Respublikasi g'aznachiligi va uning hududiy bo'limlari orqali moliyalashtirish tartibi.

3. G'aznachilik bo'limlarida moliyalashtirishni hujjatlashtirish, buxgalteriya yozuvlarida aks ettirish tartibini me'yoriy hujjatlar asosida mustaqil o'rganish va konspekt qilib kelish.

3-Mavzu: Byudjet tashkilotlarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlар smetalari hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi.

«Byudjet va byudjetdan tashqari jamq'armalar bilan hisob-kitoblar» hisobvaraq'i hisobvaraglar rejasida qayd etilgan bo'lib, budgetdan tashqari mablag'larning qiymati mazkur hisobvaragda aks ettiriladi.

Bu hisobvaragda budjt tashkilotlar tomonidan qonunchilikka muvofig budjt bilan, shuningdek budgetdan tashqari Pensiya jamq'armasiga ajaratmalarga doir, jamq'arib boriladigan pensiya to'loclari bo'yicha hisob-kitoblar hisobi va boshqa budgetdan tashqari jamq'armalar bilan hisob-kitoblar olib boriladi.

Test

1. Tashkilotlarning xarajatlari smetalari necha nusxada tuziladi?

- A) Bir nusxada tuziladi;
- B) Uch nusxada tuziladi;
- C) Ikki nusxada tuziladi;
- D) To'rt nusxada tuziladi.

2. Tegishli moliya organlari tomonidan qaysi muddat ichida byudjet tashkilotlari tomonidan tasdiklangan smetalar va shtat jadvallari ro'yxatdan o'tkaziladi?

- A) Moliya yilining birinchi choragida.
- B) Byudjetning parametrlari tasdiqlangandan so'ng 55 kundan kechiktirmay
- C) Byudjetning rarametrlari tasdiklangandan so'ng 30 kundan kechiktirmay
- D) Byudjetning rarametrlari tasdiqlangandan so'ng 40 kundan kechiktirmay

3. Byudjet tashkilotlari tomonidan xarajatlar smetalari va shtatlar jadvalini tuzish to'g'risidagi yo'riqnomasi qachon ro'yxatdan o'tgan va nechinchi son bilan?

- A) O'zR A V dan 2010-yil 19-noyabrda ro'yxatga olingangan
- B) № 2157-sonli yo'riqnomasi.
- C) O'zR A V dan 1999-yil 23-dekabrda ro'yxatga olingangan
- D) № 859 sonli yo'riqnomasi.

4. G'aznachilik bo'lmalari byudjetdan mablag' oluvchilarining byudjet tasnisining tegishli bo'lim, bob va paragraflari bo'yicha xarajatlarini to'xtatish huquqiga egami va qaysi hollarda?

- A) Byudjetdan mablag' oluvchilarining tegishli moliya organlariga belgilangan.
- B) Hisobotlarni taqdim etmagan va boshqa hollarda (moloya organlari tomonidan g'aznachilik bo'lmalarini byudjetdan mablag' oluvchilarining hisobot topshirmaganligi to'g'risidagi yozma bildirishnomasi bo'yicha).
- C) Yo'q.
- D) g'aznachilik bo'lmalari byudjetdan mablag' oluvchilarining byudjet tasnisining tegishli bo'lim, bob va paragraflari bo'yicha xarajatlarini to'xtatish huquqiga ega emas.

5. Byudjet tashkiloti xarajatlar smetasida xarajatlar necha guruhdan iborat?

- A) 5 ta guruhdan iborat.
- B) 2 ta guruhdan iborat.
- C) 3 ta guruhdan iborat.
- D) 4 ta guruhdan iborat.

6. Ish beruvchining javobgarligini majburiy sug'urtalash xarajat moddasi qaysi xarajat guruhi tarkibiga kiritiladi?

- A) 1-guruh tarkibiga.
- B) 2-guruh tarkibiga.
- C) 3-guruh tarkibiga.
- D) 4-guruh tarkibiga.

7. Xarajatlar smetasining 41 21 100 kod ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy ajratma xarajat moddasi qanday hisoblab topiladi va u necha % ni tashkil etadi?

- A) (Ish haqi + rag'batlantirish) * 24,76 %;
- V) (Ish haqi + rag'batlantirish)* 25%
- S) O'tgan yili yagona ijtimoiy ajratma xarajat moddasi bo'yicha haqiqiy xarajat summasiga teng.
- D) To'g'ri javob yo'q

8. Byudjet tashkiloti shtatlar jadvalini tuzishda quyidagi jihatlarga e'tibor berish lozim.

- A) Byudjet tashkiloti faoliyatini o'ziga xos xususiyatlarini;
- V) Byudjet tashkiloti kontengentini;
- S) Byudjet tashkiloti hududiy joylashuvini;
- D) Markaziy bo'ysinuviga e'tibor berish.

9. Byudjet tashkiloti shtatlar jadvalini tuzish, ro'yxatdan o'tkazish va tasdiqlash jarayonida kimlar ishtirok etadi?

- A) Byudjet tashkiloti;
- B) Tegishli moliya organi;

- C) Yuqori turuvchi idoralar;
 D) Boshqaruv apparati

10. Byudjet tashkiloti xarajatlar smetasiga o'zgartirish qanday hollarda amalga oshirilishi mumkin?
- Byudjet tashkiloti xarajatlariga mablag' yetmaganda;
 - Byudjet tashkiloti xarajatlaridan mablag' ortib qolganda;
 - Xarajatlar smetasi bir xarajat moddasidan ikkinchi xarajat moddasiga mablag' ko'chirilganda;
 - To'g'ri javob yo'q.

I-illova

Ma'ruza mashg'uloti dokladlari

- Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasi va ularni tuzish tartibi.
- Byudjet tashkilotlarida shtatlar jadvalini tuzishning xususiyatlari.
- Byudjet mablag'lari bo'yicha smeta xarajatlarini tuzish tartibi va ularni ijrosi hisobi.
- Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini tuzish va ular ijrosi hisobining xususiyatlari.

2-illova

Xulosani shakllantirish uchun savollar

- I. Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasi hamda shtatlar jadvalini tuzish, ijrosini tashkil etishning xususiyatlari.

- Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasini tuzishning zarurati nimada?
- Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasini qaysi me'yoriy hujjalarga asoslanib tuziladi?
- Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasi qanday manbaalar hisobiga tuziladi?

4. Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasi qancha muddatga tuziladi?

II. Byudjet tashkilotlarida shtatlar jadvalini tuzishning xususiyatlari.

- Byudjet tashkilotlarida shtatlar jadvalini tuzishning o'ziga xos xususiyatlarini sanab bering?
- Byudjet tashkilotlarida shtatlar jadvalini tuzishda qaysi me'yoriy hujjalarga asoslanib tuziladi?

III. Byudjet mablag'lari bo'yicha smeta xarajatlarini tuzish tartibi va ularni ijrosi hisobi.

- Byudjet tashkilotlarida byudjet mablag'lari bo'yicha smeta xarajatlarini tuzish jarayonida va uni tasdiqlashda kimlar mas'ul hisoblanadi?

- Byudjet mablag'lari bo'yicha smeta xarajatlarini ijrosini hisobi amalga oshirilganda qaysi buxgalteriya yozuvlarida aks ettiriladi?

IV. Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini tuzish va ular ijrosi hisobining xususiyatlari.

- Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasi ijrosi hisobining o'ziga xos xususiyatlarini sanab bering?

- Byudjet tashkilotlari tomonidan ijaraga berilgan vositalardan, (binolar uchun) tushgan tushumdan mahalliy byudjetga necha foiz o'tkaziladi?

3-illova

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari (ballarda)	Munozara ishtirokchilari			
	1	2	3	4
Ma'ruzaning mazmuni (2,5);				
- Mayzu; ga mos kelishi (1,5);				
- inantiqiylik, anqlik (0,5);				

- xulosalarni qisqaligi (0,5);			
<i>Informasion texnologiyalardan soydalanganligi (ko'rgazmalilik) – (0,9).</i>			
<i>Reglament (0,6)</i>			
Jami (4,0)			
		Taqribchilar (F.I.SH.)	
<i>Ma'ruzaning tavsifi (3,0)</i>			
- ma'ruzaning kuchli tomonlari aniqlash (1,2)			
- ma'ruzaning zaif tomonlari aniqlash (1,2)			
<i>Reglament (0,6)</i>			
Jami (3,0)		Opponentlar, ishtirokchilar (F.I.SH.)	
<i>Savollar:</i>			
- har biri uchun (0,3)			
<i>Qo'shimcha</i>			
- har biri uchun (0,3)			
- moliyati bo'yicha (0,3)			
Jami (3,0)			

4-ilova

Amaliy mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun savollar

- Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasini tuzishning zarurati nimada?
- Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasini qaysi me'yoriy hujjalarga asoslanib tuziladi?
- Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasini qanday manbalar hisobiga tuziladi?
- Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasini qancha muddatga tuziladi?
- Byudjet tashkilotlarida shtatlar jadvalini tuzishning o'ziga xos xususiyatlarini sanab bering?
- Byudjet tashkilotlarida shtatlar jadvalini tuzishda qaysi me'yoriy hujjalarga asoslanib tuziladi?

8. Byudjet tashkilotlarida byudjet mablag'lari bo'yicha smeta xarajatlarini tuzish jarayonida va uni tasdiqlashda kimlar mas'ul hisoblanadi?

9. Byudjet mablag'lari bo'yicha smeta xarajatlari ijrosini hisobi amalga oshirilganda qaysi buxgalteriya yozuvlarida aks ettiriladi?

10. Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini ijrosi hisobining o'ziga xos xususiyatlarini sanab bering?

1-ilova

Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi va reglament

- Guruhsda ishlash va trezentatsiyani yozish – 20 min.
- Ishning natijalarini taqdimot etish – 5 min.
- Jamoa bo'lib muhokama qilish va guruhnini baholash – 5 min.

2-ilova

Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruhning har bir a'zosi:

- o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhnini baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

3-ilova

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari (ball)

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari (ballarda)	Guruhlar		
	1	2	3
1-topshiriq (0,3)			
2-topshiriq:			
- Mavzu: ga mos kelishi, ko'rgazmalilik (0,8);			
- mantiqiylik, aniqlik (0,5);			
3-topshiriq (0,5)			
4-topshiriq:			

- xulosalarni aniq shakllantirilganligi (0,5);			
Reglament (0,2)			
Nazorat savollariga to'g'ri javob uchun (0,1)			
Boshqalar tomonidan to'ldirilganligi uchun (0,1)			
Jami (3,0)			

4-ilo va

Muammoli savollar

1. Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasi va ularni tuzish tartibi?
2. Byudjet tashkilotlarida shtatlar jadvalini tuzishning xususiyatlari?
3. Byudjet mablag'lari bo'yicha smeta xarajatlarini tuzish tartibi va ularni ijrosi hisobi?
4. Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini tuzish va ular ijrosi hisobining xususiyatlari?

Mustaqil ta'lim topshiriqlari

